



**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING O‘ZBEK TANQIDCHILIK ILMIDAGI
MEROSI HAMDA “PADARKUSH” PYESASINING O‘ZBEK
DRAMATURGIYASIDA TUTGAN O‘RNI**

Ermatova Zulfiya Abdug‘aniyevna,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Filologiya va
tillarni o‘qitish: arab tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Muminova Dilshodaxon Abduvaxitovna,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “O‘zbek
va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti (PhD)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek jadid adabiyotiga mansub ilk dramatik asar - Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub “Padarkush” dramasi tahlil qilinadi. Asarda ko‘tarilgan tarbiyasizlik, johillik, axloqiy inqiroz kabi muammolar va ularning dramatik ifodasi o‘rganiladi. Personajlarning ismlari orqali berilgan kinoyaviy ma‘nolar, ramziy timsollar tahlil qilinib, ular orqali muallifning ijtimoiy-tarbiyaviy g‘oyalari ochib beriladi. Eduard Ollvordning baholashlariga tayanilgan holda, dramadagi har bir obrazning semantik yuklamasi chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada jadid adabiyotiga oid tanqidiy yondashuvlarga ham e‘tibor qaratilib, asarning g‘oyaviy-badiiy darajasi va davr ma‘naviyati bilan bog‘liqligi yoritiladi. Behbudiy dramasi orqali jadid adabiyotiga xos bo‘lgan shiorbozlik, da‘vat, ma‘rifatparvarlik va o‘tkir ijtimoiy tanqid elementlari namoyon qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Padarkush”, jadid adabiyoti, o‘zbek dramaturgiyasi, ijtimoiy tanqid, tarbiya, axloqiy inqiroz, dramatik obraz, ramz, kinoya, ma‘rifatparvarlik.*

XX asrning 1911-yillariga kelib, o‘zbek jadid adabiyotida yangi janr – dramaturgiya shakllana boshladi. Bu yo‘nalishdagi ilk asar sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimag‘on bolaning holi” nomli dramasi maydonga chiqdi. Bu asar nafaqat jadid dramaturgiyasining boshlanishi, balki o‘zbek adabiyotidagi muhim bosqichlardan biri sifatida ham e‘tirof etiladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, dastlabki jadid asarlar badiiy jihatdan mukammal bo‘lmagan bo‘lsa-da, ularning maqsad va mazmuni xalq ongini uyg‘otish, milliy tafakkur va madaniyatni yangilashga qaratilgan edi. Bu holatni jadidchilik maktabi asoschilaridan biri professor Begali Qosimov quyidagicha izohlaydi: “Jadidchilikning ruhi va





mazmunini o‘zida bekamu ko‘st namoyon etgan jaded adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynaydi... Yalang‘och da‘vat va chaqiriqlar, shiorbozlik ko‘zga tashlanadi” [5, 128]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, garchi ilk jaded dramalari oddiy g‘oya va yetarlicha badiiyat bilan ajralib turmagan bo‘lsa-da, ular o‘z davrining muhim ijtimoiy muammolarini ko‘tarib chiqqan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston o‘lkasida tarbiyaviy muammolarning ildizini chuqur anglab, farzandlarning ma‘naviy-intelektual kamolotini birinchi galdagi vazifa sifatida ko‘rdi. U, avvalo, qadimiy fikrlash tarzidan hamda mustamlakachilik siyosatining tahlikalaridan faqat ma‘rifat orqali qutulish mumkinligini asoslab berdi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi esa shu davrda keng tarqalgan tarbiyasizlik muammosini yorqin badiiy ifodalagan, o‘z zamoni uchun dolzarb bo‘lgan tipik asarlardan biri sanaladi.

Behbudiy qalamiga mansub “Padarkush” asariga amerikalik olim Eduard Allvord tomonidan berilgan talqin esa yanada chuqurroq ma‘no qatlamlarini ochib beradi. Uning fikricha, dramadagi ismlar oddiy emas, balki har biri muayyan timsol va kinoyaviy ma‘no yuklangan belgilar sifatida xizmat qiladi. Masalan, bosh qahramon Toshmurod ismi “tosh” (qattqlik) va “murod” (niyat) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, u qahramonning toshdek sovuqqon va qat‘iy xarakterini ifodalaydi. Uning do‘sti Tangriqul esa nomiga zid tarzda Xudoning irodasiga qarshi borib, inson hayotiga tajovuz qiladi. Nor esa “olov”, “do‘zax” ma‘nolarini ifodalovchi ism bo‘lib, dramadagi yomonliklar manbai sifatida yoritiladi. Davlat esa nomi boylikni anglatgan bo‘lsa-da, amalda 3-4 so‘mga zor, kambag‘al bir yigitdir — bu esa o‘tkir kinoya orqali yashirin fikrni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, Xayrullo obrazi ezgulik timsoli bo‘lib, boyga sadoqat bilan xizmat qiladi. Liza esa axloqsizlik va ma‘naviy buzuqlik ramzi bo‘lib, u boshqa millat vakillari orasida uchraydigan qahramonlar qatoridan joy olgan. Asarda arman millatiga mansub mayxonachining mavjudligi ham Turkistondagi real ijtimoiy muhitni aks ettiradi – ya‘ni iqtisodiy ustunlik boshqa millatlar qo‘lida bo‘lgan, o‘zbek xalqi esa mehnatkash, aksariyat vaqtini dalada ishlab o‘tkazayotgan xalq sifatida tasvirlanadi.

Behbudiy ushbu dramasi orqali jaholat, axloqsizlik, va tarbiyasizlik kabi illatlarning ildizini fosh etadi. Toshmurodning johilligi sababli otasini o‘ldirishi – bu individual muammo emas, balki butun bir millat farzandlarining ma‘rifatsizlik natijasida qanday fojiaga yuz tutishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, “Padarkush” dramasi garchi badiiy jihatdan sodda bo‘lsa-da, chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan muhim asar hisoblanadi. Aniqroq aytganda, XX asr boshlarida o‘zbek milliy adabiyotiga yangi janrlar, ayniqsa drama kirib kelgani bilan birga,





yangicha badiiy vositalar, xususan, yashirin kinoyaning ham ta'siri sezila boshladi. Behbudiyning "Padarkush" dramasi esa bu o'zgarishlarning yorqin namunasi sifatida o'rganilishi lozim.

Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zbek adabiyotida tanqid ilmi rivojiga qo'shgan hissasi ham beqiyosdir. Adabiy tanqid mohiyatini aniqlab berish zarur bo'lgan hollarda, bugungi kunda ham ko'plab adabiyotshunoslar va tanqidchilar Behbudiyning "Tanqid – saralamoqdir" degan mashhur fikriga, shu nomdagi maqolasiga murojaat qiladilar. Chunki ushbu ibora adabiy tanqidning vazifasini ko'rsatib berish bilan bir qatorda, uning tub mohiyatini ham chuqur ifodalaydi. Behbudiyning shu nomli maqolasida esa, adabiy tanqidga oid tamoyillar, barcha davrlar uchun dolzarb bo'lgan yondashuvlar va asosiy metodologiya aniq ko'rsatib berilgan. Ya'ni bu maqola orqali tanqidning nazariy asoslari puxta ishlab chiqilganini ko'rish mumkin. U o'z fikrini quyidagicha ifoda etadi: "Sarrolar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatqa taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila "tanqid" atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur".

Muallif tanqid masalasida, eng avvalo, uning jamiyatdagi o'rni va unga qanday munosabatda bo'lish kerakligiga urg'u beradi. Unga ko'ra, tanqid – bu nuqsonlarga e'tibor qaratishdir va uni dushmanlik sifatida qabul qilish noto'g'ri. Biroq tanqidiy fikr shaxsiy hujumga aylanmasligi lozim. Ammo agar biror muallim, mudarris yoki muharrirning faoliyati yoki shaxsiy sifati xalq uchun zarar yetkazsa, u holda bunday tanqid jamiyat foydasi uchun muhim hisoblanadi. Demak, Behbudiyning qarashlariga ko'ra, kim bo'lishidan qat'i nazar, xalq manfaatiga zarar keltiruvchi har qanday faoliyat tanqid qilinmog'i lozim. Behbudiy tanqidni faqat adabiy yo'nalishda emas, balki umuman barcha jabhalarda tahlil qiladi. Uningcha, tanqidning asosiy maqsadi – islohot, ya'ni mavjud xato va kamchiliklarni tuzatishdir. Shu sababli tanqidni to'g'ri qabul qilish muhim bo'lib, bu jarayon xalqning madaniy darajasini ko'rsatadi. Biroq muallif tanqidga nisbatan ijobiy munosabat jamiyatimizda hanuz shakllanmaganidan afsus bildiradi. U bu borada shunday yozadi: "Bizni(ng) Turkistonda yangi maktablar xeyli bordur. Yangi risola xeyli bosilib turubdur. Jaridalarg'a maqola va she'rlar o'qulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davriga yetishganimiz yo'q. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarga qattiq tegar. Yozganlarimizni(ng) buzuqligi va fikrimizni(ng) xatoligi, ishimizni(ng) noqisligini biror kishi ko'rsatsa, achchig'imiz kelur. Va ul odamni dushman ko'rub, shaxsidan nafrat va fikrig'a norozilik bayon eturmizki, bul bizni(ng) yangidan ishg'a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur". Muallif, o'z asarlarida ko'p hollarda vatandoshlarimiz hali





tanqidiy fikrni tinglab, uni tahlil qilish darajasiga yetmaganini achinish bilan ta'kidlaydi. U bunga misol sifatida Kavkazlik sayyoh Muhammad Sayyid afandining Turkiston maktablari haqidagi tanqidiy mulohazalarini keltiradi. Mazkur mulohazalar "Oyna" jurnalining 27–30-sonlarida e'lon qilingan bo'lib, bu chiqishlarga "Sadoi Turkiston" gazetasi sahifalarida asossiz norozilik bildirilgan. Behbudiy bu holatni xalqimizda tanqid madaniyatining hali shakllanmaganiga yaqqol dalil sifatida talqin etadi. U o'z mulohazasini quyidagicha yakunlaydi: "...biz hanuz tanqidg'a layoqat paydo etganimiz yo'q. Yana qadima kasallarimizdan – "norizo", "xotiri qolmasinu..." illatlari hanuz ketgani yo'q... Munday ketabersa, qiyomatdan ming yil so'ngra-da, Turkistong'a taraqqiy yo'q. Agarda "xotir qolmasun" qoidasi maslak tutilsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak".

Shubhasiz, o'tgan asr boshida bildirilgan ushbu fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Behbudiyning bu boradagi yondashuvi uning estetik konsepsiyasining mazmun-mohiyatini belgilab bergan bo'lib, adabiy tanqidning shakllanishi hamda milliy asosda rivoj topishida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining ilg'or ziyolisi, fidoyi jadidchisi va o'z xalqining ozodligi uchun kurashgan buyuk shaxslardan biridir. U ta'lim-tarbiya, adabiyot va siyosat sohalarida faoliyat yuritib, xalqni jaholat qutqarishga, ilm yo'liga boshlashga intildi. Behbudiy o'zining ilmiy va ma'rifiy ishlari bilan nafaqat Turkiston, balki butun musulmon olamida chuqur iz qoldirdi. Uning dramaturgiya hamda tanqid sohasidagi boy ilmiy merosi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, badiiy ijod sohasidagi olimlarimiz uchun maktab bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanqid – saralamoqdir. – Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashri (Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov). - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Behbudiy Mahmudxo'ja. Teatr nadur?. – Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashri. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Allworth, Edward A., The Modern Uzbeks: From The Fourteenth Century to The Present A Cultural History, Hoover Institution Press, Standford, 1990.
4. V.M. Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozg'uvchilar. "Turkiston" gazetasi, 1923-yil 10 dekabr.
5. Behbudiy, Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. II jild. – Toshkent: Akademnashr, 2021.

